

UYUSHGAN KESIMNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI

Arakulova Shohsanam

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Filologiya fakulteti 4-kurs 406-guruh talabasi

qarshiboyevagulsun81@gmail.com

ANNOTASIYA

Uyushgan kesimning o‘ziga xos xususiyati, o‘zbek tilshunosligida qo‘llanilish o‘rni, o‘quvchilarga mavzuni yetkazishda o‘ziga xos usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Uyushgan kesim, tilshunoslik, kesimlilik shakllari, uyushiq sodda gap, uyushiq qo‘shma gap, strukturali nutqiy hosila, prediaktivlik.

ABSTRACT

The peculiarities of the organized section, the place of its use in Uzbek linguistics, the peculiar methods of conveying the topic to students are discussed.

Keywords: Cohesive cut, linguistics, cut forms, cohesive soda sentence, cohesive compound sentence, structural speech product, prediactivity.

Uyushgan kesim haqida o‘zbek tilshunosligida juda ko‘p tilshunoslar o‘z fikr va mulohazalarini keltirib o‘tishganlar.

Men bu mavzuni yoritishda bir necha kitoblardan foydalandim. Jumladan: Ra’no Sayfullayevaning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” nomli kitobida shunday deyilgan: “Uyushgan kesimlarda kesimlilik shakllari bilan faqat oxirgi kesim shakllangan, boshqalari esa bu qo‘shimchani olmagan bo‘ladi”.

Masalan: Bizning yoshlar dono va zukkodirlar. Bu yerda “dono” va “zukkodirlar” uyushiq kesim. E’tibor qilsak, “dono” so‘zida hech qanday kesimlilik shakli yo‘q, ammo “zukkodirlar” so‘zida esa kesimlilik shakllari mavjuddir.

Agar ikkala so‘zda ham kesimlilik shakllari bo‘lganda ular alohida-alohida gapni hosil qilgan bo‘lar edi va uyushiq kesimni hosil qilmas edi.

Quyidagi misolga nazar tashlaymiz.

U vaqtlarda otam kosib, onam tikuvchi edi(uyushgan sodda gap). U vaqtlarda otam kosib edi va onam tikuvchi edi(qo‘shma gap).

Bu gaplarning ikkinchisida uslubiy g‘alizlik yaqqol ko‘rinadi. Shu sabab bu gap uyushiq kesimli sodda gap bo‘lgani to‘g‘ridir.

Uyushiq kesim turli soʻz turkumlari boʻlishi mumkin. Bu ot va olmoshda mavjud. Masalan: Taniganim, bilganim sen va Halimdir.

Ammo boshqa soʻz turkumlari bunday xususiyatga ega emas. Uyushiq keimlarning oldin turgani **(-i(b))** shakli ravishdosh bilan ifodalanganda , hol bilan monand boʻlib qoladi.

1. U qoʻrib, baqirib yubordi.
2. U tanib, bilib, soʻray boshladi.

Har ikkala gapda qoʻllanishda ham feʼl soʻz shakllari bir-biriga oʻxshaydi. Biroq gaplarning birinchisida feʼl hol(**qoʻrqib**) va kesim(**baqirib yubordi**). Keyingi gapda esa uyushiq kesim mavjud, ammo birinchi gapda uyushiqlikning zaruriy belgisi – uyushtiruvchi ohang mavjud emas. Hozirgi oʻzbek tili sintaksisini oʻranish boʻyicha ancha ishlar qilingan boʻlishiga qaramay tilimiz va nutqimizda keng isteʼmolda boʻlgan qator hodisalarning Grammatik qurulishidagi oʻrni aniq belgilanmagan. Men ham uyushiq boʻlaklarni oʻrganishda juda koʻp chalkashliklarga duch keldim. Bu holat doimo tilshunoslik muhokamasida boʻlib kelgan. Shulardan biri sostavli kesimlarga ega boʻlgan qoʻshma gap strukturali nutqiy hosilalardir. Bunday konstruksiyalarda predikativlik maʼnolari har ikkala kesim uchun umumiy boʻlgan taqdirda predikativlik fomalarini oʻzida tashuvchi element koʻpincha “ixchamlik” maqsadida “qavsdan tashqari” ga chiqariladi, yaʼni u umumiy boʻlak sifatida gapning oxirida takrorlanib, har ikkala kesimga tegishli boʻladi. Chunonchi, yuqorida keltirilgan otam kosib, onam tikuvchi edi jumlasini (uyushgan sodda gap) ushbu fikrning yaqqol dalilidir. Demak gap tarkibida ikki va undan ortiq atov birliklar (soʻz, ibora ,soʻz birikmalari) bilan ifodalanish kesimga xos boʻlib, kesimni shakllantiruvchi vositalar faqatgina keying kesim tarkibida ifodalanib, barchasiga aloqador boʻlsa ,bunday koʻp kesimli gap uyushiq kesimli gap boʻlib keladi. Kesim uyushib kelganda uni shakllantiruvchi vositalar (zamon, shaxs-son, mayl, tasdiq-inkor shakllari, bogʻlama va koʻmakchi feʼllar) doimo oxirgi boʻlakka qoʻshilib keladi:

Mavzuni yaxshi tushunish uchun, avvalo, darsni diqqat bilan tinglash, berilgan topshiriqlarni bajarish, muntazam takrorlash kerak;

Men uzoq yillardan buyon shu shaharda yashab, oʻqib, ishlab kelayapman;

Biz harbiy uchuvchi va vatan posponlari boʻlamiz.

Agar ushbu vositalar har bir kesimga qoʻshilib kelsa, bunday gap uyushiq kesimli soda gap emas, balki qoʻshma gap hisoblanadi:

Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi;

Men bu masalani uqqanman va yechganman;

Biz voqea sodir boʻlgan joyga borishimiz kerak, hammasini oʻz koʻzimiz bilan koʻrishimiz kerak va ishonch hosil qilishimiz kerak;

Do‘kondorlar molini maqtab turishardi va xaridorlarni chorlab turishardi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘zbek tilshunoslarining fikrlari, dalil va misollari uyushiq kesim haqidagi ko‘plab ma’lumotlarni berdi. Lekin bu uyushgan kesimni to‘liq o‘rgandik degani emasdir. Shunday ekan, gap tarkibida ikki va undan ortiq atov birliklar bilan ifodalangan kesim bo‘lib, kesimni shakllantiruvchi vositalar faqat va faqat keyingi kesim tarkibida ifodalanib, barchasiga aloqador bo‘lsa, bunday ko‘p kesimli gaplar uyushiq kesimli gaplar sanaladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova ”Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent-“Fan va texnologiya”-2009
2. H.Jamolxonov. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. T; 2005
3. B. Mengliyev, O‘. Xoliyorov. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. T; 2007